

**Nilufar Yo‘ldosheva
Nargiza Musulmonova**

**O‘ZBEK TILINING
SO‘ZLAR BIRIKUVCHANLIGI
O‘QUV LUG‘ATI**

Maktab o‘quvchilari uchun

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI
QASHQADARYO VILOYAT PEDAGOG XODIMLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI
OSHIRISH INSTITUTI

Nilufar Yo'ldosheva
Nargiza Musulmonova

O'ZBEK TILINING
SO'ZLAR BIRIKUVCHANLIGI
O'QUV LUG'ATI

Maktab o'quvchilari uchun

Toshkent
«Yangi asr avlodi»
2006

Lugʻat, avvalo, oʻrta maktab oʻquvchilari uchun moʻljallangan. U, shuningdek, ona tili va adabiyoti fani oʻqituvchilari, filolog talabalar va qolaversa, oʻzbek tili bilan qiziquvchi keng kitobxonlar ommasi uchun ham foydadan xoli emas.

Masʻul muharrir
Hamid Neʻmatov
filologiya fanlari doktori, professor

SO'ZBOSHI

Kuchli va ayovsiz raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti tadbirkor, ijodiy tafakkur sohibi bo'lgan, har qanday qiyin vaziyatdan o'z aql-idroki bilan omon chiqa oladigan mustaqil fikrli, shu bilan birga, ongida milliy ruhi mustahkam shaxsni tarbiyalashni talab qiladi.

Inson shaxsida ruh, tafakkur va til chambarchas bog'liqdir. Demak, ijodiy va mustaqil tafakkurli shaxs tarbiyasida ona tili darslari va uni tashkil etuvchi vositalarning roli beqiyos.

Ma'lumki, o'rta maktab ona tili ta'limining konseptual asoslarida ona tili ta'limining zaruriy vositasi ikkita ekanligi ta'kidlanadi: darslik va lug'atlar. O'quvchilarning ijodiy tafakkurini va nutqini o'stirishning zaruriy omillaridan biri lug'atlar ustida ishlashdir. Lug'atlar o'quvchilarning ijodiy tafakkuri, mustaqil fikrlash darajasi, ijodiy fikr mahsulini og'zaki va yozma shakllarda ravon bayon etishga olib keladigan behad qimmatli va boy so'z zahirasini vujudga keltiradi. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda ta'limning har bir bo'g'ini uchun (bog'chadan tortib, universitetgacha) yuzlab lug'atlarning maxsus turlari yaratilgani, hatto rus maktablari uchun 30 ga yaqin o'quv lug'atlari mavjud bo'lgani holda o'zbek maktablari uchun bitta «Imlo lug'ati» bor, xolos. 1960-70-yillar oralig'ida ishlab chiqilgan bu «Imlo lug'at»lari 1956 yilda tasdiqlangan kiril yozuviga asoslangan imlo qoidalari asosida yaratilgani bois bugungi kunda amalda bo'lgan imlo talablariga javob bermaydi. Maktablar uchun izohli lug'at, ma'nodosh so'zlar lug'ati, antonimlar lug'ati, darajalanish lug'ati, tarixiy so'zlar lug'ati, shevaga xos so'zlar lug'ati, iboralar lug'ati, so'zlarning birikuvchanlik lug'ati, uyadosh so'zlar lug'ati, shakldosh so'zlar lug'ati, so'z tarkibi lug'ati, talaffuzdosh so'zlar lug'ati, shuningdek, har bir fan bo'yicha alohida terminologik lug'atlar va qomuslar yaratish dolzarb vazifadir.

O'quvchilar uchun zarur lug'atlar yaratilmas ekan, ijodiy tafakkurni rivojlantirish, og'zaki va yozma nutqni o'stirish vositasi bo'lgan joriy darsliklar o'z vazifasini to'la bajara olmaydi. Bu o'rta ta'lim bo'g'ini uchun mavzuviy o'quv lug'atlarini yaratish tamoyillarini ishlab chiqish va tuzishni taqozo qiladi.

Qarshi Davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida professor-o'qituvchilari maktablar uchun mavzuviy o'quv lug'atlarini ishlab chiqarishdek sharaflil vazifani o'z zimmalariga olidilar va buning natijasi o'laroq kelajagimiz faxri bo'lgan maktab o'quvchilari uchun o'ndan ortiq mavzuviy o'quv lug'atlari yuzaga keltirildi.

Ushbu o'quv lug'atlari tajriba sifatida birinchi marta nashr qilinayotganligi uchun kitobxonlar muhokamasiga havola etiladi. Lug'at kitoblari haqidagi fikrlaringizni mamnuniyat bilan qabul qilamiz. Manzil: Qarshi Davlat universiteti o'zbek tilshunosligi kafedrasida. Тел: (8-375) 25-77-63; 23-48-55). Faks: (8-375) 221-13-12. E-mail: kasu_info@edu.uz.

B.R.Mengliyev
filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH

Ma'lumki, lug'atlar ta'lim samaradorligini oshirishda, o'quvchilarning izlanuvchanlik qobiliyati va ijodkorlik mahoratini takomillashtirishda eng zaruriy qo'llanma hisoblanadi. Lug'atlar u bilan ishlayotganlarga, o'qiyotganlarga hamma vaqt quvonch keltiradi. Masalan, biror so'zning ma'nosini yoki u qaysi so'z bilan birikishi mumkinligini bilmay xunob bo'layotganimizda lug'at yordamga keladi. Chunki hamma ham lug'at boyligimizdagi barcha so'zlarning ma'nosini bilavermaydi. Qolaversa, maktab o'quvchilari so'z birikmalari yoki gap tuzayotganlarida so'zning ma'nosi nazardan chetda qolib, mazkur so'zlarning bir-biri bilan birikishidagi ma'noviy va uslubiy munosabatlari orasida g'alizliklar vujudga keladi. Mazkur lug'at bu g'alizliklarni bartaraf etishda, omonim, sinonim, paronim so'zlarni farqlashda, ular yordamida soz birikmalari va gaplar tuzishda, bolalarning so'z boyligini oshirishda ko'mak beradi.

Lug'at o'quvchilar nutqida ko'p uchraydigan mustaqil so'zlar hamda hozirgi o'zbek adabiy tili uchun xarakterli bo'lgan omonim, sinonim, paronim so'zlar va ular bilan birikuvchanlik hosil qilayotgan birikmalarni o'z ichiga olgan.

Lug'at alifbo tartibida tuzildi. Bir so'z birdan ortiq ma'noni bildirsa, bu holat rim raqamlari bilan ko'rsatildi.

ADASH I – 1. Adashini chaqirmoq.

ADASH II – 1. Adashib kelib qolmoq.

Har bir lug'at maqolasi quyidagilardan tashkil topgan: 1) So'z. 2). Shu so'zga birikib kelayotgan so'zlar qatori. 3). Misol va sitatalar.

Sheriy asarlardan olingan parchalarda misralar ketma-ket yozildi, misra boshidagi birinchi so'z bosh harf bilan boshlandi.

Lugʻat

A-a

- ABADIY** – 1 *Abadiy hayot, abadiy xotira, abadiy doʻstlik, abadiy yashamoq.*
- ABZAL** – 1 *Abzalni tuzatmoq, otning abzali.*
- ADABIY** – 1 *Adabiy asarlar.*
2 *Adabiy hayot, adabiy muhit.*
3 *Adabiy til, adabiy uslub.*
- ADASH I** - 1 *Adashini chaqirmoq, ikkimiz adashmiz.*
- ADASH II** – 1 *Adash kelib qolmoq, kalishi adash boʻlib qolmoq.*
- ADASHMOQ** – 1 *Yoʻldan adashmoq, oʻrmonda adashmoq.*
2 *adashib kirmoq, adashgan it.*
3 *koʻch. Hayotda adashmoq.*
4 *Kalishi adashib qolmoq.*
5 *Hisobdan adashmoq.*
- ADIB** – 1 *Buyuk adib, ulkan adib, adib ayol, adiblarimizdan biri, adib ijodini oʻrganmoq.*
- ADIP** - 1 *Toʻnning adipi, koʻrpaning adipi.*
- ADIL** - 1 *Adil terak. Adil koʻcha. Qiz boʻychan va sambitgul novdasiday adil edi.*
- ADL** – 1 *Adl turmoq.*
- AFSONA** – 1 *Toʻmaris afsonasi. Hazorasp afsonasi.*
2 *koʻch. Afsona toʻqimoq.*
3 *koʻch. Afsonalarni haqiqatga aylantirmoq.*
- AFSONAVIY** – 1 *Afsonaviy qahramon. Afsonaviy hikoya.*
2 *Afsonaviy qush, afsonaviy shoh.*
3 *Afsonaviy goʻzal.*
4 *koʻch. Afsonaviy gap.*
5 *koʻch. Afsonaviy ulugʻvorlik baʼsh etmoq.*
- AFZAL** – 1 *Koʻrmoq afzal. Tilladan afzal. Balki undan afzalsan. Afzal koʻrmoq.*
- AHIL** - 1 *Ahil oila, ahil doʻst. Ahil yashamoq, ahil boʻlmoq.*
- AHL** - 1 *Shahar ahli, mahalla ahli.*
2 *Anjuman ahli, majlis ahli.*
3 *koʻch. Qalam ahli.*
4 *Ahli ilm. Ahli donish. Dehqon ahli. Ahli rasta. Xotin ahli.*
- AHVOL** – 1 *Bemorning ahvoli.*
2 *Ahvolingga qara.*
3 *Ahvollar yaxshimi? Otaning ahvoli. Ahvolini soʻramoq.*
4 *Xalqaro ahvol, siyosiy ahvol.*
- AJAB** - *Ajab ishlar. Ajab boʻldi.*
- AJABLANMOQ** - 1 *Kelganiga ajablanmoq. Yolgʻondan ajablanmoq.*
- AJRALMOQ** - 1 *Ota-onadan ajralmoq.*
2 *Eldan ajralgan.*
3 *Atomlarga ajralmoq.*
4 *Soʻlak ajraldi.*
5 *Piyoz poʻsti ajraldi.*
6 *Boshqalardan ajralib turmoq.*
7 *Erta ajraldi.*
8 *Hammadan ajralib turgan shaxs.*
- ALAMI** – 1 *Hijron alami. Judolik alami. Alam chekmoq.*
2 *Kaltak alamidan yigʻlamoq.*
3 *Alamini olmoq. koʻch. Isaning alamini Musadan olmoq.*
4 *Alamdan tarqamoq (yoki chiqmoq).*

- ALAM II** – 1 *Keksa chinorlarga alam bog'lamoq.*
- ALAMZADA** – 1 *Alamzada yigit. Alamzada bo'lib yurmoq.*
2 ko'ch. *Alamzada yurak, alamzada ko'ngil.*
- ALAMLI** - 1 *Alamli yara.*
2 *Alamlilarga yor o'lmish.*
3 *Alamli ohang. Alamli ko'ngil.*
- ALDAMOQ** – 1 *Birovni aldamoq. Aldangan yigit.*
2 *Aldab olib ketmoq.*
3 *Uni aldamoqchi bo'ldi.*
4 *Aldaganiga ko'nmoq.*
- ALDAMCHI** – 1 *Aldamchi xotin.*
2 *Aldamchining gapiga ishonmoq.*
3 ko'ch. *Aldamchi hislar, aldamchi xayollar.*
4 *Aldamchiga chiqarmoq.*
- ALLA I** - 1 *Alla aytmoq. Onamning allasi.*
- ALLA II** - 1 *Alla bo'lmoq. Polvonni alla qilib qo'lga tushurmoq.*
- ALOMAT** – 1 *Qo'shuv alomati. Savol alomati .*
2 ot *Qish alomati. Shodlik alomati. Qo'rquv alomati.*
3 ot *Kostyumida qizil yulduz alomati bor.*
4 sft ko'ch. *Alomat odam, alomat qiz, alomat yigit.*
5 sft ko'ch. *Alomat ishlar. Alomat savdolar.*
- ALOQA** - 1 *Diplomatik aloqa. Do'stlik aloqasi. Aloqa o'rnatmoq. Aloqa qilmoq. Aloqasi buzilmoq. Aloqamiz yaxshi.*
2 *Radio aloqasi. Havo aloqasi. Aloqa yo'llari. Aloqa ministrligi. Aloqa xodimlari.*
3 *Fanning ishlab chiqarish bilan aloqasi.*
4 *Bu gaplarning menga aloqasi yo'q.*
5 *Aloqada bo'lmoq. Aloqadan qochmoq. Aloqasi haqida hech kimga og'iz ochmaslik.*
- AMAL** - 1 *Amalda isbotlamoq. Orzulari amalga oshmoq. Rejani amalga oshirmoq.*
2 *Amal tegdi. Amalga minmoq. Amaldan tushmoq.*
3 *Bir amalini qilmoq.*
4 mat. *To'rt amal. Arifmetika amallari.*
5 *Qonunga amal qilmoq. Dori amal qilmadi.*
6 *Amal qilib bermoq. Amal ichirmoq.*
- AMALLAMOQ** - 1 *Ishni bir amallamoq. Ishni bir amallab qilmoq.*
2 *O'qishga kirishni amallamoq.*
- AMIN I** – 1 *Orzularining ro'yobga chiqishiga amin bo'lmoq.*
2 *Chegaralarimiz har qanday xavf-xatardan amin.*
- AMIN II** – 1 *Aminlarini mahkam ushlamoq.*
2 *Bozor amini.*
3 *Qishloqning amini.*
4 *Ukamning ismi- Amin.*
- AMIR** - 1 *Buxoro amiri. Amir rahbarlik qiladigan davlat. Amirning amri. Azizbekning amiri bo'lmoq.*
2 *Do'stimning ismi- Amir.*
- AMR I** – 1 *Birovning amri bilan ish qilmoq. Vijdon amriga bo'ysunmoq.*
2 *Amr bermoq. Podsho amri vojib. Uning amrida ermish saltanat.*
- AMR II** - 1 *Tarki odat – amri mahol. Maqol.*
2 ko'ch. *Amri ma'ruf ko'p odamlarni tarbiyalaydi.*
- ANDAZA** - 1 *Andaza olmoq. Etik andazasi. Andaza bilan ish bichmoq. Andazani chiqarmoq.*
2 *Jahon andazalariga mos.*

- 3 ko'ch. *Bir xil andazada yozilgan hikoyalar.*
- 4 ko'ch. *O'z andazasi bilan o'lchaqmoq.*
- ANIQ** – 1 *Aniq hisob. Aniq vaqt. Aniq portret. Aniq o'lchov asboblari.*
 2 *Aniq xabar. Aniq bilmoq. Kelishi aniq.*
 3 *Aniq xulosa. Javobi aniq. Aniq-aniq qilib yozmoq. Aniq gapirmoq.*
 4 *Aniq xat. Imzo aniq emas. Odamni aniq ko'rmoq.*
 5 *Bu gapni aniq odamdan eshitmoq. Aniq fanlar. O'tgan zamon aniq fe'li.*
- ANIQLAMOQ** – 1 *Masalani aniqlamoq. Haqiqatni aniqlamoq. Vazifani aniqlamoq. Kasalni aniqlamoq. Og'irligini aniqlamoq. Burchakni aniqlamoq. Masofani aniqlamoq.*
 2 *Majlis kunini aniqlamoq.*
- ANG'IZ** – 1 *Qir bag'ridagi ang'iz. Ang'izga qo'ylarni yoyib yubormoq.*
 2 *Beda ang'izi.*
- AQL** – 1 *Aqli bor odam. Aqldan ozmoq. Aqlingni yo'qotma. Aqlini kiritmoq.*
 2 *Aql topmagan. Aqli raso. Aqli kalta. Aqldan ortiq boyluk yo'q. Maqol.*
 3 *Odam - aql egasi. Aql ajratib turmoq.*
 4 *Aql bilan ish yuritmoq. Aql bovar qilmaydigan narsa. Aqlini olmoq.*
- ARAF** – 1 *Arafadan uch kun oldin. Arafa bozor. Qurbon hayiti arafasida. Yolg'on arafa. Chin arafa.*
 2 *Yangi yil arafasi. To'y arafasi.*
 3 *Tug'ilgan kun arafasida.*
- ARZANDA** - 1 *Arzanda o'g'il. Arzanda kelin.*
 2 *Arzandasi keldi.*
- ASAR** – 1 *Adabiy asar. Bosma asar. Ilmiy asar. Sahna asari. Navoiy asari. Asar yozmoq. Tanlangan asarlar to'plami.*
 2 *Boyligidan asar ham qolmadi. Yuzida qon asari yo'q. Dori asar qilmadi.*
- ASIL** - 1 *Asil atlas. Asil mol. Asil buyum. Asil gurgung. Mollarning asili. Atlasning asili. Asilidan olmoq.*
 2 *Asil tosh.*
 3 ko'ch. *Asil yigit. Asil odam. Asil farzand.*
 4 *Asil (erkaklar ismi)*
- ASIR** - 1 *Asir tushmoq. Asir olmoq. Asirlarni almashmoq. To'rt devor asiri bo'lib o'tirmoq.*
 2 ko'ch. *Asir etmoq. Shu qizning asiri bo'lmoq. She'ringiz asiriman.*
- ASIRA** – 1 *Asira ayo.*
 2 *Asira bo'lmoq.*
- ASL** – 1 *Aslini surishtirmoq. Aslini olganda, siz haqli emassiz.*
 2 *Asl iziga tushmoq. Asliga qaytmoq.*
 3 *Asliga to'g'ri. Aslidan ko'chirma.*
 4 *Aslimiz. Qarshidan. Asli kimligini aytmoq.*
 5 *Asl muddao. Asl nom. Asl ma'no. Bilim olishga asl yo'l endi ochildi.*
- ASORAT I** – 1 *Xurofot asoratida qolmoq.*
 2 *Mustamlakachilik asorati. Asoratga solmoq. Asoratga tushmoq.*
- ASORAT II** – 1 *Charchash asorati. Kasallik asorati. O'tmish asoratlari.*
 2 med. *Gripp asorati. Tumov asorati.*
- ASOS** – 1 *Uyning asosi. Stanok asosi. Shamdon asosi.*
 2 *Adabiyotning asosi. Reja asosida ishlamoq. Reja asosiga qurilgan xo'jalik. Shaharga asos solmoq. O'zbek adabiyotiga asos soluvchilardan biri.*
 3 *Ximiya asoslari.*
 4 *Qonuniy asos. Ayblashga asos topmoq. Asos ko'rsatmoq. Gapingiz to'g'riligiga asos yo'q. Asos qilib olmoq.*
- ASR I** - 1 *XXI asr bo'sag'asida. O'tgan asrning so'nggi kuzi. Bir asrdan ortiq yashamoq.*
 2 *O'rta asrlar tarixi. Tosh asri.*
- ASR II** - 1 *Asr payti bormoq.*

- 2 *Asr o'qimoq.*
- ASRAMOQ** - 1 *Bolani asramoq. Asrab olingan bola.*
 2 *Kitobni asramoq. Yomon ko'zdan asramoq. Asragan ko'zga cho'p tushadi.*
 3 *Vatanni asramoq.*
 4 *Qishga uzum asramoq.*
- ATLAS I** – 1 *Iqtisodiy atlas (xarita). Dunyo atlas. Yulduzlar atlas. Anatomik atlas. Atlasni keltirmoq. Atlas sotib olmoq.*
- ATLAS II** – 1 *Qora atlas. Sariq atlas. Xon atlas. Sakkiz tepki atlas. Atlas ko'ylak. Atlas sotib olmoq. Atlasdan tiktirmoq. Sotilgan atlaslar.*
- AYAMOQ** - 1 *Ayamasdan urmoq. Ayamasdan tanqid qilmoq.*
 2 *Ayab gapirmoq.*
 3 *Oyog'ini ayab bosmoq.*
 4 *Mehrini ayamoq.*
 5 *Ayab ishlatmoq.*
- AYB** – 1 *O'z aybiga iqror bo'lmoq. Aybini bo'yniga qo'ymoq. Aybini yashirmoq. Katta aybga yo'l qo'ymoq.*
 2 *So'raganning aybi yo'q. Orzuga ayb yo'q. Ayb qilmoq. Aybga buyurmoq. Ayb so'zlar bilan so'kinmoq.*
 3 *Tuzatib bo'lmas ayb. Aybsiz do'st qidirmoq*
- AYBDOR** – 1 *Aybdor bo'lmoq.*
 2 *Aybdorni olib chiqib ketmoq.*
 3 *Aybdor qiz. Bir ko'zidan aybdor bo'lmoq.*
- AYBLAMOQ** – 1 *Ayb qilmoq.*
 2 *O'g'irlikda ayblamoq.*
- AYON** - 1 *Ayon masala. Ayon bo'lmoq. Barchasi menga ayon.*
- AYTMOQ** - 1 *Rostini aytmoq. O'z fikrini aytmoq. Aytishga til bormaydi. Boshqacha aynganda. Aytishlariga qaraganda. Betga aytganning zahri yo'q. Ashula aytmoq. Zavq bilan aytmoq.*
 2 *To'yga aytmoq. Hasharga aytmoq.*
 3 *Dovyurakligini aytmoq.*
 4 *Ba'zi bir tovushlarni ayta olmaslik.*
 5 *Xushbo'yligini ayting. Chevarligini aytmaysizmi?*
 6 *Uzrini aytmoq. Salom aytmoq.*
 7 *ko'ch Adi-badi ayt(ish)moq. Afsona aytmoq.*
- AZIM** – 1 *Azim daryo. Azim tog'lar. Shahri azim. Azim gunoh qilmoq.*
 2 *Azimning kitobi. Azimni ko'rmoq. Azimga kitobni bermoq. Azimdan olmoq.*
- AZM** - 1 *Poytaxtga kelmoqqa azm qilmoq.*
- AG'ANAMOQ** - 1 *Zinadan ag'anab tushmoq.*
 2 *Tuni bilan bosinqirab, ag'anab chiqmoq.*
 3 *Mashina ag'anab ketdi.*
- AG'DARMOQ** - 1 *Raqibini bir urib ag'darmoq.*
 2 *Chelakdagi suvni yerga ag'darib yubormoq. Qopdagi kartoshkani o'raga ag'darmoq.*
 3 *Somoni ag'darmoq. Pichanni ag'darmoq. Ag'darilgan yer.*
 4 *Cho'ntaklarini ag'darib ko'rsatmoq.*
 5 *ko'ch O'z aybini do'stiga ag'darmoq.*
 6 *ko'ch Xalq istibdodni ag'darib tashlamoq.*
- ASHADDIY** – 1 *Ashaddiy ishqiboz. Ashaddiy muxlis.*
 2 *Ashaddiy dushmanlik. Ashaddiy firibgar. Ashaddiy yulg'ich. Ashaddiy bezori.*
- ACHINMOQ** - 1 *Holiga achinmoq. Qattiq achinmoq. Do'stiga achinmoq.*
 2 *Ketgan vaqtiga achinmoq. Achinmay gapirmoq.*
- ACHCHIQ** - 1 *Achchiq qalampir. Achchiq dori.*
 2 *Achchiq gilos. Achchiq olma.*
 3 *Achchiq gaz. Achchiq tamaki. Achchiq hid.*

- 4 *Achchiq izg'irin. Achchiq sovuq.*
 5 ko'ch *Achchiq gap. Achchiq haqiqat. Achchiq tanqid. Achchiq istehzo. Tili achchiq.*
 6 ko'ch *Achchiq ko'zyosh. Achchiq yig'i. Achchiq hikoya.*
 7 *Achchiq bilan gapirmoq. Achchig'i tez odam. Uning achchig'i tez. Achchig'i chiqdi.*
 8 *Turmushning achchig'larini totib ko'rmoq.*

◆ *Achchiq choy.*
 Jon achchig'ida.

ANGLAMOQ – 1 *Vatan neligini anglamoq.*

2 *Ona mehrini anglamoq. Xatosini kech anglamoq. Dushman holatini anglamoq.*

3 *Odamni tez anglab olmoq.*

A'LAM – 1 *Marosimga yetib kelgan qozi, mingboshi, mufti va a'lamlar. Vallohi a'lam.*

2 *A'lam (erkaklar ismi).*

A'YON – 1 *Hirotning akobir va a'yonlari. Saroy a'yonlari.*

A'ZO – 1 *Nutq a'zolari. Sezgi a'zolari. Ichki a'zolar.*

2 *A'zoyi badani qaqshamoq. Oila a'zolari. Partiya a'zosi.*

3 *Xalqaro tashkilotlar a'zosi. A'zo bo'lmoq.*

◆ *Muxbir a'zo.*

B-b

BADAN – 1 *Badani oppoq.*

2 *Butun badani. Badaniga og'riq kirmoq. Badan tarbiya.*

◆ *Rohati badan.*

BADAVLAT – 1 *Badavlat kishi. Badavlat yashamoq.*

BADIY – 1 *Badiiy adabiyot. Badiiy film. Badiiy asar.*

2 *Badiiy o'qish. Badiiy kashta. Badiiy keramika.*

3 *Badiiy to'garak. Teatrning badiiy rahbari.*

4 *Aktyorning badiiy mahorati. Badiiy did. Badiiy bezak bermoq.*

BAHO – 1. *Bozor bahosi. Go'shtning bahosi. Yuqori baho. Past baho. Baho qilmoq. Baho qo'ymoq. Molning o'z bahosi.*

2 *Bahong besh. Qoniqarli baho. Baho olmoq.*

3 ko'ch *Fikrlaringizning bahosi juda baland, ustoz! Suvning bahosi oltin. Bahosi yo'q narsa. Ishiga qarab baho bermoq.*

BAHOLAMOQ – 1 *Otni baholab qo'ymoq.*

2 *Olimning xizmatlarini yuqori baholamoq.*

BAHOR – 1 *Bahor nafasi. Bahor yomg'iri. Bahor shamoli. Bahorni sog'inmoq. Bahorda bormoq. Bahorda ishlamoq. Bahorda gullamoq. Erta bahor. Bahor payti. Bahordan so'ng.*

2 ko'ch *Bu hayotning hazoni yo'q, mangu bahor. Hojixonning fasli bahori ham tugalishga qarab yuz tutdi.*

BAHORG – 1 *Bahorgi ish. Bahorgi ekin kampaniyasi. Bahorgi toshqin. Bahorgi kayfiyat*

2 *ayn. bahori. Bahorgi bug'doy.*

BALAND – 1 *Baland uy. Baland dor. Baland ot. Baland minora. Baland devor. Baland tom. Bo'yi baland odam. Hammadan baland.*

2 *Baland yer. Baland ostona. Baland tokcha. Badaxshonning eng baland qislog'i.*

3 *Baland ovoz bilan. Uning ovozi baland.*

4 *Baland temperatura. Baland bosim. Baland bahoni qo'ymoq. Isitmasi baland.*

5 ko'ch *Baland martaba. Mavqeyi baland.*

6 ko'ch *Bu yerlarda suvning qadri juda baland. Toleyingiz baland ekan.*

7 *Balanddan turib. Balanddan pastga tishmoq. Baland uchadigan.*

◆ *Baland oxurdan suv ichmoq.*

Dimog' baland. Kayfi baland. Qo'li baland kelmoq. Balanddan kelmoq.

BALANDLAMOQ – 1 *Sam olyot balandlab ketdi. Suv balandlab bormoqda.*

2 Ovozini balandlatmoq

3 Narx-navo balandladi.

BALANDLIK – 1 Uyning balandligi. Issiqning balandligi. Ovozning balandligi. Hurmatning balandligi. – Biror odamning o'zidan past yo balandligini o'lchamoq.

2 Balandlikka ko'tarilmoq.

3 Uchburchakning balandligi. Konusning balandligi.

BALIQ - 1 Zog'ora baliq. Katta baliq. Tilla baliq. . Baliq tutmoq. Baliq sotib olmoq. Baliqni yuvmoq.

2 Qovurilgan baliq. Tuzlangan baliq. Baliq kombinati.

3 Baliq yili.

4 ko'ch Juda baliq-ku!

◆ Baliq sirti.

BALO I – 1 Baloyi nogahoniy. Ko'rinmas balo oyoq ostida. Suv balosi. Baloyi nafs. Boshga balo bo'lmoq. Tuhmat balosi. Balolarga qolmoq. Balolardan saqlanmoq. Balo ham urmaydi.

2 Bir balosi bor. Balo bormi? Bir balo qilmoq. Har baloni bilmoq. Hech baloda yo'q. Hech baloni bilmaslik. Balodan ham qaytmaydi.

◆ Nima (yoki ne, qanday) balo.

BALO II – 1 Balo yigit. Balo qiz. Matematikadan balo ekan. Juda balo. Hammadan balo.

BAND I – 1 Choynakning bandi. Chelakning bandi.

2 Sirg'aning bandi. Uzukning bandi. Oltin bandi yaltiramoq.

3 Uzum bandi. Gilos bandi. Bandi bo'shab qolgan barglar.

4 Zanjirning bandlari. Bandi- bandidan ajralmoq.

BAND II – 1 Bir band she'r. She'rning bir bandini o'qimoq.

2 Qarorning ikkinchi bandi. Birinchi bobning uchinchi bandi.

3 Qo'shiqning ayrim bandlari.

BAND III – 1 Ipning bandi. Bandni bo'shatmoq. Bandni yechmoq. Daryo yo'liga band solmoq.

2 Bandidan xalos qilmoq.

3 Dilini band qilmoq.

BAND IV - 1 Uy odamlar bilan band. Telefon band.

2 O'qish bilan band. Ish bilan bandman. Band bo'lmoq. Joy band bo'lib qolmoq. Qo'lim band.

3 Xona band.

BANDA – 1 din. Xudoning bandasi. Bandaning boshi.

2 s.t. Banda bechora. Menga zor bandalar.

3 ko'ch. Kitob bandasi. Pul bandalari. Nafs bandasi. Unga banda bo'lmoq.

4 Sodiq bandalariga inobatlarini ayamaslar.

◆ Xom sut emgan banda.

BANDI – 1 Bandi bo'lmoq. Bandi askarlar. Bandi qilib olib ketmoq.

2 To'rt bandini zindondan olib kelmoq.

BANT - 1 Lentani sochiga bant qilib bog'lagan qizcha.

BAQUVVAT – 1 Baquvvat yigit. Baquvvat ot. Baquvvat qo'llar. Baquvvat tortmoq.

2 Baquvvat ip. Baquvvat arqon. Baquvvat tishlar. Baquvvat uy.

3 O'zini ancha baquvvat sezmoq.

4 Baquvvat ko'chatlar. G'o'zaning hosildor shoxlari baquvvat edi.

5 fiz. Baquvvat motor. Baquvvat elektr stansiyalar.

6 ko'ch. Tangriqul hoji baquvvat xo'jalik edi.

◆ Beli baquvvat 1) Beli baquvvat yigit. 2) ko'ch Beli baquvvatlarning ishi brogan sari avj olmoqda.

BARHAYOT – 1 Biz uchun Navoiy va Boburlar barhayot. Barhayot yashamoq.

2 ko'ch Barhayot navolar. Barhayot an'analar.

BARKAMOL – 1 Barkamol yoshlar. Barkamol inson. Har tomonlama barkamol. Barkamol hayot tuzmoq.

- 2 ko'ch *Shoirning barkamol she'rlari.*
- BAXT** - 1 *Oilaviy baxt. Baxt keltirmoq. Eng katta baxt. Ulkan baxt. Baxting ochilsin. Baxtingni bersin. Baxti qora bo'lmoq. Bolasining baxtini ko'rolmagan ona.*
 2 *Baxti bor qiz. Baxti bor ekan. Baxtini sinab ko'rmoq.*
 ♦ *Baxt qushi boshiga qo'ndi. Baxtdan ko'rmoq. Baxtga qarshi kirish s.*
- BAXTLI** - 1 *Baxtli yigit. Baxtli qiz. Baxtli yashamoq. Baxtli bo'lmoq.*
 2 *Baxtli turmush. Baxtli hayot. Baxtli damlar.*
 3 *Baxtli bilet. Baxtli voqea.*
- BAXTSIZ** - 1 *Baxtsiz yetimlar. Baxtsiz bo'lgani uchun yig'lamoq.*
 2 *Baxtsiz hayot.*
 3 *Baxtsiz hodisa. Baxtsiz mayiblar.*
 4 *Baxtsiz bilet.*
- BAYT I** - 1 *G'azalning bir bayti. G'azaldan ikki bayt aytib bermoq.*
 2 *Baytingiz juda ta'sirli.*
- BAYT II** - 1 *Baytlar sonini aniqlamoq.*
- BAZM** - 1 *Tungacha bazm qilmoq. Bazm o'tkazmoq. Bazmi jamshid. Bazm qurmoq.*
 2 *Kursdoshlar bazmi. To'y bazmi.*
 3 ko'ch *Gul bazmi. She'r bazmi. Qushlar bazmi.*
- BAZUR** - 1 *Bazur o'tiravering. Choyni bazur ichavering.*
- BAZO'R** - 1 *Qo'lga bazo'r ilinadigan kichkina qalam. Bazo'r so'zlamoq. Bazo'r gapirmoq.*
- BAG'IR** - 1 *Bag'riga bosmoq.*
 2 ko'ch *Ota-ona bag'rida o'smoq. Onasining bag'rida yashamoq. Bag'riga olmoq.*
 3 ko'ch *Bag'rini ezmoq. Bag'rinni qon qilmoq.*
 4 ko'ch *Yerning bag'rini yormoq. Qora tin bag'rini yashindek tilmoq. Yer bag'rida gi foydali qazilmalar. Yer bag'rida yotmoq. Bag'ri keng.*
 5 *Qashqatovning bag'ri bilan yuqoridan ketmoq. Tog' bag'rida bir necha uy ko'rinmoq.*
 ♦ *Bag'ri tosh Bag'ri tosh odam. Bag'ri tosh chiqmoq. Bag'ri qora Bag'ri qora odam. Bag'ri qora ilonlar. Bag'ringiz butun bo'lib qoldimi? Bag'rini ko'tarib olmoq.*
- BEDOR** - 1 *Bedor tunlar. Bedor ko'zlar. Tunlarni bedor o'tkazmoq. Bedor yotmoq.*
 2 ko'ch. *Bedor chegara soqchilari. Dushman xavfini sezgan soqchilar bedor turishdi.*
- BEKITMOQ** - 1 *Eshikni bekitmoq. Shishaning og'zini bekitmoq. Sandiqni bekitmoq. Teshik-yoriqlarni bekitmoq.*
 2 *Pulni bekitmoq. O'g'lini ko'rpa orasiga bekitib qo'ymoq. O'yinchoqni bekitmoq.*
 3 *Birovning sirini bekitmoq.*
 4 *Chegarani bekitmoq. Yo'lni bekitmoq. Andijon - O'sh yo'li bekitildi. Suvni bekitmoq. Gazni bekitmoq.*
 5 *Yukni brezent bilan bekitmoq. Yuzini bekitmoq. Oftobdan bekitmoq.*
 6 ko'ch *Majlisni bekitmoq. Ko'rgazmani bekitmoq. Savdoni bekitmoq.*
 7 ko'ch *Zontni bekitmoq. Qalamtaroshni bekitmoq. Kitobni bekitmoq.*
- BEKOR** - 1 *Bekor yurgan bolalar. Bekor odam. Bekor bo'lmoq. Bekor qilmoq.*
 2 *Bekor gap. Bekor aytmoq. Bekor ketdi.*
 3 *Bekorga ishlamoq.*
 4 *Intizor bo'lgani bekor.*
- BEL I** - 1 *Odamning beli. Otning beli. Beli bukchaygan chol. Bel muskullari. Bel og'rig'i. Bel og'ritmoq. Beli og'rimaganning non yeyishiga qara.*
 2 *Beli yo'g'on odam. Beli xipcha ayol.*
 3 *Beli tor ko'ylak. Beli burma ko'ylak.*
 4 ko'ch *Belimda pul yoq. Belidan teshasini olmoq. Qog'ozni beliga tugib ketmoq.*
 5 *Bayroq vishkaning qoq beliga chiqarib qoqilgan. Mashina belga kelib to'xtadi.*
 6 ko'ch *Farzand - belning quvvati. Beli baquvvat bo'lib qolmoq. Bel olishmoq.*
 7 *Necha bellardan oshmoq.*

♦ Bel bog'lamoq. *Ishga bel bog'lamoq. Beliga tepmoq. Gapning beliga tepmoq. Ishning beliga tepmoq. Belini sindirmoq. Gapning belini sindirmoq.*

BEL II – 1 *Bel bilan yerni ag'darmoq.*

BERMOQ - 1. *Xatni qo'liga bermoq. Berganning betiga qarama. Kitobni o'qishga bermoq.*

2 *Ekinga suv bermoq. Yerga o'g'it bermoq. Mollarga xashak bermoq. Qurilishga mablag' bermoq.*

3 *Xom ashyo bermoq. Zotli sigir bermoq. Yuqori hosil bermoq. Bola (nasl) bermoq.*

4 *Bolasini litseyga o'qishga bermoq. Bolalarni bo'gchaga bermoq.*

5 *Dillarga orom bermoq. Sirli ohang bermoq. Ajib bir manzara bermoq.*

6 *Maqolaning davomini jurnalning kelasi sonida bermoq.*

7 *Qo'sh. ot Ahamiyat bermoq. Boy bermoq. Javob bermoq. . Savol bermoq. Jazosini bermoq.*

8 *Ko'makchi fl. Beliga nonni tugib bermoq. Kitobni o'qib bermoq.*

9 *Ko'makchi fl Bemalol ishlay bermoq.*

10 *Yetakchi fl Xabar berib turmoq. Maysazorga bag'rini berib yotgan.*

BET - 1 *Beti yumaloq qiz. Qizning bewtidagi quyuc qora qoshi. Sevinchi betiga qalqib chiqmoq. Betini yuvmoq. Badbashara betini ko'rsatma.*

2 *Ikki beti qizil olmaday.*

3 *Quyosh betidagi dog'lar. Suv betida. Stol betida.*

4 *ayn Gazetaning to'rtinchi beti. Kitobning 19-betida.*

5 *Daryoning narigi beti.*

6 *Pichoqning beti.*

♦ *Beti yo'q. Beti qalin. Badfe'lning beti qora. Qaysi beti bilan ro'para bo'libdi? Bet chidamaydi. Beti qursin. Betga aytmoq. Betga chopmoq. Betiga oyoq qo'ymoq. Pulning betiga qaramay sarf qilmoq. Betini ko'rmagan. Betini yulmoq.*

BILMOQ - 1 *Atrof-muhitni bilmoq.*

2 *Matematikani bilmoq. U biladigan odam. Bilib aytmoq.*

3 *Og'riqni bilmoq. O'z aybini bilmoq.*

4 *Uni hamma biladi.*

5 *Kim ekanligini endi bilmoq.*

6 *O'zini er bilmoq. Gapini sir deb bilmoq.*

7 *Kasali qayerdaligini bilmoq.*

8 *O'z qadrini bilmoq. Yaxshilikni bilmoq.*

9 *Oshning tamini bilmoq.*

10 *Bilganini qilmoq. O'zingiz bilasiz.*

♦ *Bilganing bilgan. Bilganingdan qolma. Tilini bilmoq. Qush tilini qush biladi.*

BILIM – 1. *Harbiy bilimlar. Agronomik bilimlar. Kuch bilimda. Bilim cho'qqisi. Bilim sohalari. Bilim manbai. O'z bilimini oshirmoq. Bilim olmoq. Bilimni egallamoq.*

2 *Uning bilimi zo'r. Bilimi o'tkir. Bilimi oz. Bilimim yetishmaydi.*

♦ *Bilim yurti.*

BILIMDON – 1 *Bilimdon odam. Bilimdon bo'lib borayotgan yoshlar.*

2 *Ishning ko'zini biladigan bilimdon rahbar. Uni qishloqning eng bilimdoni deb maqtashar edi.*

BIKIR - 1 *Bikir yigit. Beling bikir (pishiq, baquvvat) bo'ladi.*

BIKR - 1 *Bikr (bokira) qiz.*

BIROV I – 1 *snq son Birovining ham ma'nosi yo'q.*

BIROV II – 1 *olmsh Birov kelib turtmoq.*

2 *Birovga bermoq. Birovlarning bolalari.*

♦ *Ba'zi birovlarning ko'ngliga qaramoq.*

BITMOQ I- 1 *Gap bitdi. O'qish bitdi. Tavakkalchining ishi bitdi. Kuni bitdi.*

2 *Qayg'u, g'am bitdi. Eski adovatlari bitdi. Zapaslar bitdi. Oziq-ovqat bitdi.*

- 3 Ko'makchi fl *Qishloqlar yonib bitgan. Hasratingla kuyib bitgan. Cho'lda paxta bitdi. Daraxt yonib bitdi.*
- ♦ Izzati bitdi. Qulog'i bitdi. Haqi bitdi.
- BITMOQ II-** 1 *Bu'gdoy yaxshi bitibdi. Ekin bitadi.*
2 *Yarasi bitmoq. Ko'zi bitib qolmoq.*
♦ Jir bitdi.
- BITMOQ III** – 1 *Xat bitmoq. Qog'ozga bitmoq.*
2 *Oyog'iga etik, egniga chopon bitadi.*
♦ Aql bitdi. Boshga bitgan balo. Muguz bitdi. Peshanaga bitgan.
- BICHIM** - 1 *Yangicha bichimdagi ko'ylak. Bichimi harbiycha kiyim. Bichimini olmoq.*
2 *Yuz bichimi. Ko'z bichimi. Bichimi kelishgan yigit.*
- BOLA** - 1 *Bolani olmoq. Bolani emizmoq. Bolaga bermoq.*
2 *Ko'chada yurgan bola.*
3 *O'z bolasi. Qo'shning bolasi. Shum bola. Sho'x bola. Aqlli bola.*
4 *Echkining bolasi. Sichq'onning bolasi.*
- BOLALAMOQ** – 1 *Qo'ylar bolaladi. Erta bahorda bolalamoq. Kutilmaganda bolalamoq.*
2 *ko'ch Tuyg'ulari bolaladi.*
- BOLALIK** – 1 *Uning bolaligi. Bolaligi qolmadi. Bolaligi qiyin kechdi. Baxtli bolalik.*
2 *Bolalik qilib qo'ydi.*
- BOQMOQ** - 1 *Derazadan boq'moq.*
2 *Navoiyga boqmoq. Ko'ngliga boqmoq.*
3 *Bola boqmoq.*
4 *Bizni yer boqadi.*
5 *Ko'makchi fl Aytib boq. So'rab boq.*
- BORMOQ** - 1 *Toshkentga bormoq. Ertaga bormoq. Kech bormoq. Hamma boradi.*
2 *Xabar bordi.*
3 *Ishga bordi.*
4 *Shu yo'ldan bormoq.*
5 *Kitoblarim mingga bordi.*
6 *Ma'lumotlarni yozib bormoq.*
- BOSMOQ** - 1 *Loyni bosmoq.*
2 *Yelkasidan bosmoq.*
3 *Kitobni bosib chiqarmoq.*
4 *Yuz bog' bedani bosmoq.*
5 *Dalani suv bosmoq.*
6 *Yo'lni bir kunda bosib o'tmoq.*
7 *Qarshini bosib olmoq.*
8 *Peshonasini ter bosmoq.*
9 *To'polonni bosmoq.*
- BOY** - 1 *Boy odam.*
2 *Boy tashkilot.*
3 *Paxtaga boy. Boy tajriba.*
4 *Boyning davlati. Boyning qudrati.*
- BOG' I** - 1 *Olma bog'i. Bog'ga qaramoq. Bog'ni ag'darmoq. Bog'dan mo'l hosil olmoq.*
- BOG' II** - 1 *Tut novdasidan bog' tayyorlamoq. Iplarning bog'i. Bog'i yechilib ketmoq.*
2 *Ikki bog' ko'kat.*
- BOG'LAMOQ** - 1 *Iplarning uchini bog'lamoq. Qopning og'zini bo'glamoq.*
2 *Itni bog'lamoq. Ipsiz bog'lanmoq.*
3 *Orqasiga bog'lab olgan sumka.*
4 *Kaptarning qanotlarini bog'lamoq.*
5 *G'o'zapoyani bog'lamoq. Pichan bog'lamoq. Piyoz bog'lamoq. Supurgi bog'lamoq.*

- 6 *Ro'mol bog'lamoq. Kamar bog'lamoq. Galstuk bog'lamoq.*
- 7 *Yarani bint bilan bog'lamoq.*
- 8 *ko'ch Andijonga bog'landim. O'ziga bog'lab olmoq.*
- 9 *Ekinlarga suv bog'lamoq.*
- 10 *Yara fasod bog'ladi. Shira bog'lamoq. Yog' bog'lamoq. To'r bog'lamoq.*
- 11 *ko'ch Ta'lim-tarbiya ishlarini hayot bilan bog'lamoq.*
- 12 *Ikki fikrni o'zaro bog'lamoq. So'zlarni bog'lab gap tuzmoq. Aloqa bog'lamoq.*
- ♦ *Bel bog'lamoq. Boshini bog'lamoq. Muhabbat bog'lamoq. Umid bog'lamoq. Tilini bog'lamoq. Qanot bog'lamoq. Qo'l bog'lamoq.*

BOSH – 1 *So'poq bosh. Yumaloq bosh. Bosh kosasi. Bosh kiyimlar magazini. Boshga tushgan. Boshdan kechirilgan. Boshim yaralandi.*

- 2 *ko'ch Boshni ishlatmoq. Bosh og'ritmoq. Bosh qotirmoq. Boshiga kelmoq.*
- 3 *Bosh hisobchi. Bosh vrach.*
- 4 *Yaxshi yigit – davraning boshi. Bosh bo'lmoq. Boshida tirmoq.*
- 5 *sft Bosh bola. Bosh kelin. Bosh xotin.*
- 6 *sft Bosh sabab. Bosh masala. Bosh maqola.*
- 7 *ko'ch Bir boshga bir o'lim. Bu bosh nimalarni ko'rmadi?*
- 8 *O'n bosh ot. Ikki bosh qo'y.*
- 9 *Krovatning boshi. Kumushbibining boshiga kelib o'tirmoq.*
- 10 *Maysalarning boshi. Daraxtning boshi.*
- 11 *Ko'cha boshi. Sinf boshi. Egatning boshi.*
- 12 *Q'ishning boshi. Ishning boshi. Bir boshdan. Qayta boshdan.*
- 13 *Bir bosh uzum. Bir bosh karam.*
- 14 *Besh bosh qilib olmoq. O'n bosh qilib to'lamoq.*
- 15 *Bosh olib ketmoq.*

♦ *Boshi bilan javob bermoq. Boshi bog'liq qiz. Boshi qorong'i xotin. Boshi ko'kka yetdi. Kasaldan bosh ko'tarmoq. Turli eshiklarga boshini suqmoq. Bosh tortgan lolalar. Eshigiga bosh urib kelmoq. Boshi kasaldan chiqmay qolmoq. Bir yoqadan bosh chiqarib ishlamoq. Bir yostiqa bosh qo'ymoq. Boshga bitgan balo. Boshiga ko'tarmoq. Boshiga chiqmoq. Boshida yong'oq chaqmoq. Boshida kaltak sindi. Boshini bukmoq. Boshini yemoq. Boshini tikmoq. Boshini silamoq. Biror ishning boshini ushlamoq. Boshini qovushtirmoq Boshni qotirmoq.*

BURJ – 1 *Javzo burjida tug'ilganlar. Mezon, Aqrab burji.*

2 *Devorlarda burjlarning bo'lmasligi...*

BURMOQ - 1 *Yo'lni chapga burmoq. Mashinani burmoq. Noto'g'ri burmoq.*

- 2 *Yuzini teskari burmoq.*
- 3 *Gapni boshqa yoqqa burmoq. So'zini burmoq. O'z tomoniga burib olmoq.*
- 4 *Xaltaning o'g'zini burmoq.*

♦ *Labini burmoq.*

BURUN I – 1 *Qirra burun. Burun katagi. Burni qonab ketmoq. Burnidan tortmoq.*

- 2 *Choynakning burni.*
- 3 *Kaliti burnida unutilgan bir qutini ochmoq.*
- 4 *Kema burniga chiqmoq.*

♦ *Burni bilan gapirmoq. Burun suqmoq. Burni ko'tarildi. Burni ham qonamadi. Burnidan ip o'tkazib olmoq. Burnidan tortsa yiqilguday. Burnini tishlab qolmoq. Achchig'I burnining uchida.*

BURUN II – 1 *Chelyuskin burni. Bo'zsuv arig'I bilan o'ralgan burun.*

BURUN III – 1 *rvsh Burunlari faqat kamchiliklar ko'p bo'lgan.*

2 *Bir hafta burun aytmoq.*

3 *ko'm Bundan besh yil burun. Bundan sal burun. Hammadan burun masalani hal qilmoq.*

BUROV – 1 *Burovi kam soat, patefon. 2. U har ingraganda Sotiboldi, chakkasiga burov solingan kishiday, talvasaga tushar edi. (A.Qahhor "Bemor"). 2. (ko'ch). Og'ziga burov solmoq.*

BURCH I – 1 *Harbiy burch. Xizmat burchi. Vatanparvarlik burchi. O'z burchini o'tamoq.*

Jangchining muqaddas burchi.

BURCH II – 1. *Kazarmaning bir burchi.*

2 *Ucharmiz fazoning burchdan burchiga. Ko'nglining bir burchida umid paydo bo'lmoq.*

BURG'I – 1 *Burg'i bilan kavlamog.*

BURG'U – 1 *Nog'ora va burg'ular ovozi.. Burg'u chalmog.*

BUZMOQ - 1 *Imoratni buzmoq. Ko'prikni buzmoq. Qush uyasini buzmoq.*

2 *Soatni buzmoq. O'yinni buzib qo'ymoq.*

3 *Tinchini buzmoq. Tartibni buzmoq.*

4 *Bolani pul buzadi. Aloqani buzmoq.*

5 *ko'ch ma'sumlarning ko'nglini buzmoq.*

6 *Bitgan ishni buzmoq. Ahdni buzmoq.*

7 *Yog'li ovqat me'dani buzadi.*

8 *Haqiqatni buzib ko'rsatmoq. So'zni buzib yozmoq.*

9 *Oshni buzib qo'ymoq. Suratni buzib qo'ymoq.*

10 *Munosabatlarni buzmoq. Orani buzmoq.*

♦ *Go'shtni buzmoq. Ko'ngilni buzmoq. Olamni buzmoq.*

BUZUQ - 1 *Buzuq soat. Buzuq imorat. Buzuq arava. Buzuq mashina.*

2 *Buzuq ayol.*

3 *She'rning vazni buzuq.*

♦ *Avzoyi buzuq. Nafsi buzuq. Boshi buzuq. Og'zi buzuq.*

BUT I – 1 *Zapas qismlar but. Ust-boshi but. Noni but kishi.*

BUT II - 1 *Olaqarg'aga yetaman deb, chumchuqning buti ayrilibdi. Maqol.*

2 *Buti aymashib ketgan zo'r qalmoq.*

BUT III – 1 *Butga sig'inmoq. Yog'och butlar.*

BO'Y I - 1 *Past bo'yli inson. Bo'ylaringdan aylanay.*

2 *Binoning bo'yi 40 metrlar atrofida. Bo'yi uzun terak.*

3 *Dengiz bo'ylarida dam olmoq.*

4. *Umr bo'yi ishlamoq. Kun bo'yi. Yil bo'yi.*

5. *Bo'yi olti metr, eni to'rt metr.*

♦ *Bo'yingiz yetmaydi. Bo'yida bo'lmoq.*

BO'Y II - 1 *Shabboda gullarning bo'yini olib keldi.*

BO'SH I - 1 *Bo'sh paqir.*

2 *Bo'sh ko'cha. Bo'sh uy.*

3 *Bo'sh joy.*

4 *Bo'sh vaqt. Bo'sh kun.*

BO'SH II - 1 *Bo'sh sim. Yog'ochning bo'shini qurt yeydi.*

2 *Bo'sh xamir.*

3 *Bo'sh harakat.*

4 *Bo'sh arqon. Bo'sh latta.*

5 *ko'ch Bo'sh xodim. Bo'sh direktor. Bo'sh xotin.*

6 *Bo'sh xayol.*

7 *Dutorning torlari bo'sh. mashinaning tormozlari bo'sh. Bo'sh qo'ymoq.*

♦ *Joni bo'sh maxluq. Joni bo'sh o'simlik.*

BO'SHAMOQ I – 1 *Gayka biroz bo'shabdi.*

2 *Yer namiqib bo'shab qolmoq.*

BO'SHAMOQ II – 1 *Saroy bo'shadi. Dala bo'shadi.*

2 *Ishdan bo'shadi.*

3 *Qamoqdan bo'shadi.*

4 *Mol bo'shadi.*

BO'SHLIK I – 1 *Idishning bo'shligi. Uyni bo'shligida remont qilmoq.*

BO'SHLIK II – 1 *Ip bo'shligidan uzilib salga uzilib ketdi. Bolaning qo'llari bo'shligini ko'rib hayron bo'lmoq.*

- BO'SHLIQ** – 1 anat. *Qorin bo'shlig'i. Silindr ichidagi bo'shliq.*
 2 *Kosmik bo'shliqni o'rganishni orzu qilmoq. Bo'shliqqa tikilmoq.*
 3 *Adir bo'shliqlari.*
 4 fiz. *Torichelli bo'shlig'i. Silindr havosini tortib olib bo'shliq hosil qilmoq.*
- BO'G'OZ I** – 1 *Bo'g'oz sigir. Bo'g'oz sovliq. Tug'ishiga to'rt oy qolgan bo'g'oz xotinlar.*
- BO'G'OZ II** – 1 geog. *Gibraltar bo'g'ozi. Kerch bo'g'oziga yetib bormoq.*

D-d

- DABDABA** - 1 *Dabdabaga zo'r bermoq.*
 2 *Dabdaba bilan sahnaga chiqmoq.*
 3 *Amir Temur muzeyi o'zining dabdabasi bilan Toshkentga boshqacha fayz kiritib turibdi.*
 4 *Ortiqcha dabdaba.. Dabdabaga chek qo'yimoq.*
 ♦ *Dabdaba surmoq. Podshohlik dabdabasini surmoq.*
- DABDABALI** -1 *Dabdabali hayot. Dabdabali yurish.*
 2 *Dabdabal iimorat. Dabdabali qiyofa.*
 3 *Dabdabali va'dalar. Dabdabali gaplar. Dabdabali plakatlar.*
 4 *Dabdabali to'y.*
- DADIL I** – 1 *Dadil yigit. Dadil bola. Dadil xotin.*
 2 *Dadil qadamlar. Gulsumning dadil ovozi.*
 3 *O'zini dadil sezmoq.*
 ♦ *Hamyoni dadil.*
- DAHA I** - 1 *Chilonzor dahasi.* 2. *Eng go'zal daha.*
- DAHA II** - 1 *Ipak qurtining ishi katta dahada yana ham og'irlashadi. Dahaga kirmoq. Katta daha. Kichik daha.*
- DAHA III**- 1 *“Daha” nomidagi ibodat.*
- DAHO** - 1 *Buyuk daholar. Daholarni yetishtirmoq.*
 2 *Daho shoir. She'r dahosi.*
- DALIL** – 1 *Dalillar oldida lol qolmoq.*
 2 *huq. Ashyoviy dalil ko'rsatmoq.*
- DAM I** – 1 *Damini rostlamoq. Dami ichiga tushib ketmoq. Dami o'tkir eshon.*
 2 *Dam olmoq. Dam bermoq. Dam bermay yugurtirmoq. Dam olish kunlari. Dam olish uyi.*
 3 *Dami chiqib ketmoq. Dami chiqqan ballon. Ballonga dam bermoq.*
 4 *Qorinning dam bo'lishi.*
 5 *Olovning dami. Quyosh damini kesmoq.*
 6 *Damidan tushmoq.*
 7 *Osh dam yeguncha choy ichmoq. Choy dam yedi.*
 ♦ *Dami ichida. Dami kesildi. Damini kesmoq.*
- DAMLAMOQ** - 1 *Mashina balonini damlamoq.*
 2 *Osh damlamoq. Choy damlamoq.*
- DAM II** – 1 *Yoshlik damlarini eslamoq. Baxtli damlar. Bir dam jim qolmoq. Shu damgacha. Shu damda. Tugilgan damini eslamoq.*
 2 *bog'l. Dam yomg'ir yog'moq, dam qor.*
- DAM III** – 1 *Temirchilar dami. To'xtovsiz o'choqqa dam bermoq. Ertadan- kechgacha dam bosmoq.*
- DAM IV** - 1. *Pichoqning dami. Qilichning dami. Ketmonning dami. Xanjarning damini oydinga solib boqmoq.*
- DAM V** – 1 *Ayvonning damiga borib turmoq.*
 ♦ *Qilich damida yurmoq. Qilich damiga oyoq qo'yimoq.*
- DARA** – 1 *Tog'ning darasi. Daralar, uydin-chuqurlar paydo bo'ldi.*
- DARAJA** – 1 *90 darajali burchak.*

- 2 fiz. 40 daraja issiq. Kasalning isitmasi 38 darajadan oshmoq. 100 darajada qaynamoq.
 4 mat. O'ning ikkinchi darajasi yuz.
 5 Paxta tolasining sifat darajasi. Yetarli darajada. Belgili darajada. Quloqni kar qilar darajada. G'oyat darajada. Kutilmagan darajada faollashmoq.
 6 Hokim o'rinbosari darajasiga ko'tarilmoq.
 7 Ilmiy daraja. Fan kandidatligi darajasi. Fan doktorligi darajasi. O'rta darajadagi meditsina xodimlari.
 8 Ikkinchi darajali ish. Bilim darajasi. Turmush darajasi. Texnikani hozirgi zamon talablari darajasiga ko'tarmoq.
 9 tilsh. Sifat darajalari. Qiyosiy daraja.
- DARD I** – 1 Og'ir dard. Dardli odam. Dard ko'rmoq. Dard tortmoq. Dardga chalinmoq. Dardni yashirmoq. Dard qisib keldi. Darding bo'lsa ayt. Dardiga sherik bo'lmoq. Dardsiz ko'ngil.
 2 ko'ch. Hijron dardi. Dardiga malham bo'lmoq. Dardida yonmoq. Dardini ichiga yutmoq.
 3 ko'ch Dardi pul topish bo'lmoq. Uning dardi o'yin. Biror narsa dardida yurmoq. Dardini ochmoq. Yurak dardi borligini bilmoq.
 ♦ Dardi bedavo. Dardi ichida. Dard ustiga chipqon. Dard qolmoq.
- DARD II** – 1 O'l desang, dard deydi.
- DARZ** - 1 Darz oyna. Darz piyola. Darz ketmoq. Darz bo'lmoq. Eshik darzidan qaramoq. Har yeridan darz ketgan. Darzlaridan suv otilib chiqmoqda.
 2 ko'ch Sovuq urush muzlarida birinchi darz paydo bo'ldi. Darz ,orligini bilmaslik.
- DARRA** – 1 O'n darra urmoq. Darraga yotqizmoq. Darra bilan urmoq.
 2 Darra o'ynamoq. Darra o'yinida yutqizmoq.
- DARS** - 1 Darsga bormoq. Darsga qo'ng'iroq chalinmoq. Darsda o'tirmoq. Darsni kuzatmoq. Bugungi dars. Ertalabki darslar.
 2 ko'ch Bu voqea hammamizga dars bo'ldi.
- DASTA I** – 1 Tesha dastasi. Ketmon dastasi. Pichoq dastasi. Dasta yasamoq. Dasta sotib olmoq. Qamchining dastasi bilan urmoq.
 2 Eshikning dastasi. Chamadonning dastasidan ushlamoq.
 3 Dutorning dastasi.
 ♦ Dastasini o'zidan chiqarmoq.
- DASTA II** – 1 Bir dasta gul.
 2 Bir dasta daftar. Bir dasta pul. Bir dasta kitob.
 3 Qiziqchilar dastasi. Sozandalar dastasi.
 4 Qurt urug'dan chiqqach, dasta qo'ymoq.
- DAVLAT I** - 1. Mustaqil davlat. Ajnabiy davlatlar. Temuriylar davlati. Davlat apparati. Davlat arbobi. Davlat budjeti. Davla tgerbi. Davlat intizomi. Davlat mulki. Davlat siri.
- DAVLAT II** – 1 Bir umr to'plagan davlati - shu kitoblar. Davlat - qo'lning kiri. Davlati ko'taradi.
 2 ko'ch. Ota-onang - qo'sh davlating. Katta davlatga ega bo'lmoq.
 3 Davlat keldi.
 ♦ Davlatingiz ko'lankasida. Davlat qushi. Boshiga davlat qushi qo'nmoq.
- DAVLATLI** – 1 Davlatli kishi.
- DAVR** – 1 Mustaqillik davri.
 2 Talabalik – oltin davr. Bolalik davrimda.
 3 Daraxt kurtaklari nish urayotgan davr.
 4 geol. Tosh davri.
 5 Davri o'tib borayotganidan bezovtalanmoq.
- DAVRA** – 1 Davradagi odamlar. Davradagilardan ruxsat so'ramoq.
 2 Olimlar davrasida. Davrada hoziru nozir bo'lmoq.
 3 Birinchi davra yakuni.
- DAG'AL** – 1 Dag'al qo'llar.

- 2 *Dag'al palto.*
 3 ko'ch *Dag'al muomala. Dag'al gapirmoq.*
- DA'VO** – 1 *Mol-mulk da'vosi.*
 2 *Da'vo qilganlar. Nohaq da'vo qilmoq.*
 3 *Merosxo'rlik da'vosi.*
